

DIDAKTIKA TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA

Shahrisabz davlat pedagogika insituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika

kafedirasi o'qituvchisi

Rahmatullayev Botir Sobir o'g'li

Maktabgacha ta'lim 2-kurs talabasi

Dusmatova Shaxzoda

Ravshanova Shaxzoda

Rahmatullayevbotir70@gmail.com

https://orcid.org/0009-0001-8327-7309

Annotasiya

Ushbu maqolada didaktika ta'lim jarayonining nazariy asoslarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish sifatida tahlil qilinadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari, tamoyillari, o'qitish jarayonining mazmuni, metodlari va shakllari haqida ilmiy fikrlar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda didaktikaning o'rni, innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasi va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqola ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda didaktik yondashuvlarning dolzarbligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Didaktika, ta'lim nazariyasi, o'qitish jarayoni, didaktik tamoyillar, pedagogik metodlar, ta'lim mazmuni, innovatsion texnologiyalar, o'quv faoliyati, kompetensiya yondashuvi, ta'lim samaradorligi.

Аннотация

В данной статье дидактика рассматривается как научное направление, изучающее теоретические основы образовательного процесса. Раскрываются основные категории и принципы дидактики, содержание, методы и формы обучения. Анализируется роль дидактики в современном образовании, её интеграция с инновационными педагогическими технологиями и значение для повышения эффективности учебного процесса. Обосновывается актуальность дидактического подхода в совершенствовании качества образовательной системы.

Ключевые слова: дидактика; теория обучения; учебный процесс; дидактические принципы; педагогические методы; содержание образования; инновационные технологии; учебная деятельность; компетентностный подход; эффективность обучения.

Annotation.

This article examines didactics as a scientific field that studies the theoretical foundations of the educational process. It highlights the key categories and principles

of didactics, as well as the content, methods, and forms of teaching. The article analyzes the role of didactics in modern education, its integration with innovative pedagogical technologies, and its importance in improving learning efficiency. The relevance of didactic approaches in enhancing the quality of education.

Key words: didactics; learning theory; teaching process; didactic principles; pedagogical methods; educational content; innovative technologies; learning activity; competency-based approach; learning efficiency.

Kirish.

Didaktika pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo‘lib, o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. «Didaktika» atamasi yunoncha *didaktikos* — “o‘rgatish, o‘qitish” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ta’lim nazariyasi” mazmunini anglatadi. Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati» deb tushuntirdi. Didaktikada ta’limni tashkil etishning umumiy masalalari, o‘qitish jarayonining mohiyati, ta’limning mazmuni, o‘qitish qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Asosiy qism:

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik. Ta’limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi. Bularning barchasi o‘qituvchining ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o‘quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati o‘quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o‘quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta’lim va ma’rifat berish nazariyasi bilan shug‘ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o‘qitishning eng samarador usul va yo‘llarini topish didaktikaning asosiy

muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo‘nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o‘rni katta. Uzoq vaqt mobaynida ko‘plab kommunistik davlatlarda marksizm-leninizm didaktikaning taraqqiyot yo‘nalishini belgilab beruvchi metodologik asos deb qarab kelindi. Lekin mazkur ta‘limotning ilmiy asoslari puch, jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonuniyatlarini to‘g‘ri hamda xolis ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan tarafkash (tendensioz) qarash ekanligi ma‘lum bo‘lgach, unga tayanish mumkin bo‘lmay qoldi. Keyingi vaqtda ko‘plab musulmon davlatlarida kalom falsafasiga milliy didaktikaning metodologik asosi sifatida qaralmoqda. Chunki olamning yaralish, rivojlanish qonuniyatlari, insonning bilish imkoniyatlari, ma‘rifatning shaxs kamolotidagi, o‘zini anglash borasidagi o‘rni singari jihatlar ana shu falsafiy asosga tayanilgandagina tushunarli tarzda izohlanishi mumkinligi anglab yetildi. Kalom falsafasi ta‘lim olamni bilishning vositasi ekanligini, bilish jarayonining cheki yo‘q, ammo inson bilishi mumkin bo‘lgan bilimlar cheklanganligini ko‘rsatishi bilan diqqatga sazovordir.

Didaktika umumiy psixologiya, o‘qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog‘liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to‘g‘risida alohida bilim beradi. Ta‘lim mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o‘qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta‘lim va ma‘rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. Ayni vaqtda, alohida predmetlarni o‘qitish metodikasi maktab amaliyotining aniq tajribalaridan kelib chiqqanligi uchun didaktikaning tamoyillari ta‘lim jarayonida uchraydigan har xil favqulodda hodisalarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda tuziladi.

O‘zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shu kuriy, A. Ibodiyev, M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Saidazizov, R. Yusufbekov kabi ma‘rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo‘ldi. 20-asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik turkiy xalqlarning kad. shonu shuxratini tiklash uchun uni ma‘rifatli qilishdan o‘zga yo‘l yo‘kligini to‘g‘ri belgiladi. Jahon pedagogika sining eng so‘nggi yutuklaridan xabardor bo‘lgan, ayni vaqtda ta‘limni tashkil etishda ko‘p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e‘tiqodni belgilagan jadidlar o‘qi-tish borasida yuksak natijalarga erishdilar. Jadid mutafakkirlar ta‘limni uyushtirishning amaliy jihatlarini b-ningina shug‘ullanib qolmay, uning nazariy masalalarini ham tadqiq etganliklari diqqatga sazovordir. Jadidlarning didaktik karashlari ularning ko‘plab pedagogik asarlari, darelik va qo‘llanmalarida aks et

Globalashuv ta‘lim tizimini tez o‘zgartirmoqda. XXI asrda iqtisodiy, texnologik va madaniy integratsiya kuchaygani sababli dunyo bo‘yicha ta‘lim standartlari bir-biriga yaqinlashmoqda. Bu holat didaktikani yangi o‘quv maqsadlari, kompetensiyalar

va o'qitish yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Didaktika ta'lim nazariyasi sifatida bugungi kunda ta'lim jarayonining mazmuni, shakli, usullari va texnologiyalarini ilmiy asosda o'rganishga xizmat qiluvchi eng muhim pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Global raqobat kuchayib borayotgan davrda bilimning tez eskirishi, kompetensiyalarga asoslangan yondashuvning ustuvorligi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga chuqur kirib kelishi didaktika fanining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Didaktikaning bugungi kundagi asosiy vazifasi – o'quv jarayonini samarador, moslashuvchan, innovatsion va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Zamonaviy ta'lim fazosida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat o'zgarib, o'qituvchi endi yagona bilim manbai emas, balki o'quv jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va ta'lim muhitini yaratuvchi shaxsga aylanmoqda. Shu sababli didaktika yangi pedagogik texnologiyalar, masalan, masofaviy ta'lim, aralash o'qitish, adaptiv o'quv platformalari, sun'iy intellekt yordamida baholash va personalizatsiya jarayonlarini ham o'rganishni o'z ichiga olmoqda. Ta'lim sifati va uning natijadorligi davlatlar rivojlanishining strategik ko'rsatkichlaridan biriga aylangan hozirgi davrda didaktikaning metodik yondashuvlari nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari, real muammolarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shuningdek, ta'limning inkluzivligi, raqamli tenglikni ta'minlash, o'quvchilar ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash, ta'lim muhitining xavfsizligi kabi masalalar ham didaktika tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlari qatoriga kiradi. Bularning barchasi didaktikani nafaqat nazariy-pedagogik soha, balki jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fundamental fan sifatida talqin etishga asos bo'ladi. Shu bilan birga, ta'limga bo'lgan global talablarning tez o'zgarishi didaktikaning doimiy yangilanishini, yangi ilmiy yondashuvlar, innovatsion pedagogik modellarning joriy etilishini talab qilmoqda. Natijada, zamonaviy didaktika o'quv jarayonining ilmiy asoslangan konsepsiyasini yaratish, uni amaliyotga tatbiq etish va ta'lim tizimini yuqori samaradorlikka olib chiqishga qaratilgan eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari

- **O'rgatish** – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.
- **O'rganish** – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.
- **O'qitish** – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

- **Ta'lim** – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.
- **Bilim** – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;
- **Ko'nikma** – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.
- **Malaka** – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.
- **Kompetensiya** – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.
- **Maqsad** – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.
- **Mazmun** – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.
- **Tashkil etish** – qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.
- **Shakl** – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.
- **Metod** – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.
- **Vosita** – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob'yekt.
- **Natija** – o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

O'zbekiston mustaqillikka erishtandan so'ng o'zbek pedagogika fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda didaktikaning tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o'zgarishi pedagogik tafakkurning sog'lomlashuviga, u esa, o'z navbatida, didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy didaktikaning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning insoniylashuvidir. Mazkur tamoyil ta'lim jarayoni uchun bilim emas, balki o'quvchi shaxsi asosiy kadriyat ekanligini anglatadi. Bunda o'quvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o'rin beriladi. Ta'limning insonparvarlashuvi tamoyili o'zbek didaktikasining asosiy talablaridan bo'lib, ta'lim mazmo'nini belgilash va pedagogik amaliyotni tashkil etishda shaxs ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlariga ustuvor ahamiyat berilishini kuzda tutadi.

Didaktika ta'lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O'qituvchi biror predmet bo'yicha o'quvchilarning tizimli bilim olishini ta'minlash maqsadi sari intilar

ekan, ma'lum ishlarining bajarilish namunasini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, u ta'limning barcha bosqichlarida uquvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o'zlashtirishlari, o'rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llashlari uchun maxsus topshiriklar beriladi.

Zamonaviy innovatsiyalar sharoitida didaktika yanada kengayib, quyidagi yo'nalishlarni qamrab olmoqda:

- Raqamli didaktika: Sun'iy intellekt, raqamli platformalar, elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar va adaptiv o'quv tizimlari o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etishga imkon bermoqda. Didaktika bu texnologiyalardan samarali foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqadi.

- Aralash (blended) va masofaviy ta'lim modeli: Zamonaviy didaktika o'qitishning an'anaviy va onlayn shakllarini uyg'unlashtirib, o'quv jarayonini moslashuvchan, individual va interaktiv qiladi.

Bu yondashuv pandemiya davridan so'ng global ta'limning asosiy yo'nalishiga aylandi.

- Kompetensiyaga asoslangan ta'lim: Bugungi kunda bilim berishdan ko'ra, o'quvchilarda muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, axborotni tahlil qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirish muhim. Didaktika bu kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik modellarni yaratadi.

- STEAM yondashuvi: Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi o'quvchilarda ijodiy fikrlash va texnik ko'nikmalarni rivojlantiradi. Didaktika ushbu fanlararo yondashuvning mazmun va metodlarini ishlab chiqadi.

- O'yinlashtirish (gamification) va simulyatsiyalar: O'yin elementlari, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi. Didaktika bu vositalarning psixologik ta'siri va samaradorligini ilmiy tahlil qiladi.

- Inkluziv ta'lim didaktikasi: Har bir o'quvchining individual o'quv ehtiyojlarini inobatga olgan holda, maxsus pedagogika bilan integratsiyada ishlaydigan zamonaviy didaktika barcha uchun teng imkoniyatli ta'limni tashkil qiladi.

Xulosa. Didaktika hozirgi kunda nafaqat "o'qitish nazariyasi", balki ta'limni innovatsiyalar bilan uyg'unlashtiruvchi, shaxs rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotini qo'llab-quvvatlovchi strategik yo'nalishdir. U raqamli dunyo talablariga mos tarzda yangilanib, o'qitish jarayonini ilmiy asoslangan, samarali va kelajak kompetensiyalariga yo'naltirilgan tizim sifatida shakllantiradi. Zamonaviy dunyo sharoitida bilimning tez eskirishi, texnologik rivojlanish va global raqobat sharoiti ta'limni faqat bilim berishdan ko'ra, shaxsning kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Shu sababli didaktika o'quv jarayonini individual, interaktiv va adaptiv usullarda tashkil etishning ilmiy asoslarini yaratishda markaziy rol o'ynaydi. Innovatsion texnologiyalar didaktikani yangi darajaga olib chiqmoqda:

raqamli platformalar, sun'iy intellekt yordamida baholash, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari, aralash va masofaviy o'qitish modellari o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini moslashuvchan va samarali qiladi. Shu bilan birga, gamification, simulatsiyalar va STEAM yondashuvi o'quvchilarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy didaktika shuningdek, inkluziv va teng imkoniyatli ta'lim tamoyillarini mustahkamlash, o'quvchilarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularning o'quv motivatsiyasini oshirishga qaratilgan. Bu esa ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, motivatsion va samarali tizim sifatida shakllantiradi.

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev, Qozoqboy. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
2. Karimov I., Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, Toshkent, 1997.
3. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar, Toshkent, 1996.
4. Hoshimov K., Nishonova S, Inomova M., Pedagogika tarixi, Toshkent, 1996.
5. O'zbekiston mutafakkirlari ta'limtarbiya qaqida, Toshkent, 1995.